



Shahnoza RAXMONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi

shahnoza@navoiy-uni.uz

RUBAI METRICS IN UZBEK POETRY IN THE SECOND HALF OF THE TWENTEETH CENTURY (IN EXAMPLE OF CREATIVITY OF KHABIBI, SABIR ABDULLA, AND CHUSTI)

Abstract

The rubai (classical quatrains) of Khabibiy, Sabir Abdullah, Chusti representatives of Uzbek literature of the second half of the XX century are discussed in this article. The study claims that theories about rubais (quatrains) were first expressed in classical sources, in particular in the works of "Funun ul-baloga" by Sheikh Ahmad Tarazi, in the works "Mezon ul-avzon" by Alisher Navoi and in "Aruz risolasi" by Zahiriddin Muhammad Babur ("Mukhtasar"). The descriptions of the rubai in these works differ from each other. Along with the creation of lyrical genres from Europe in the second half of the 20th century, the work of the genres of classical literature, in particular rubai, tuyuk and other genres, also continues. Studied the continuation of these principles in the works of Khabibiy, Sabir Abdullah, Chusti. It is noted that their rubaies differ in embodiment both from the modern poetic quartet and from the tradition of classical literature. Based on this, the article says that the Khabibiy, Sabir Abdullah and Chustiy rubai created during this period are conditionally divided into three groups: traditional (classical) rubai, dubayti and a poetic quartet. It also analyzes the thematic coverage, metric and genre features of the rubai.

Key words: Aruz, Khabibiy, Sabir Abdullah, Chustiy, rubai (classical quatrains), dubayti, poetic quartet, ramal, hazaj, metrika.

МЕТРИКА РУБАИ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ ХХ ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ХАБИБИ, САБИР АБДУЛЛА И ЧУСТИ)

Аннотация

В данной статье рассматриваются рубаи Хабиби, Чусти, Сабира Абдуллы, представителей узбекской литературы второй половины XX века. В исследовании утверждается, что теории о рубаи были впервые выражены в классических источниках, в частности, в работах «Фунун ул-балога» Шейха Ахмада Тарази, в произведениях «Мезон ул-авзон» Алишера Навои и в «Аруз рисоласи» Захириддина Мухаммада Бабура («Муктасар»). Описания о рубаи в этих работах отличаются друг от друга. Несмотря на проникновение новых лирических жанров из Европы во второй половине 20-го века узбекские поэты продолжали творить в жанрах классической литературы, в частности рубаи, tuyuk. Изучено продолжение этих принципов в творчествах Хабиби, Сабир Абдулла, Чусти. Отмечается, что их рубаи отличаются воплощением как от современного четверостишия и традиций классической литературы. Исходя из этого, в статье утверждается, что созданные рубаи во второй половине XX века условно подразделяются на три группы: традиционные (классические) рубаи, дубайти и четверостишие. А также анализируется тематический охват, метрические и жанровые особенности рубаи.

Ключевые слова: аруз, Хабибий, Сабир Абдулла, Чустий, рубаи, дубайти, четверостишие, рамал, хазаж, метрика.

XX ASR IKKINCHI YARMI O'ZBEK SHE'RIYATIDA RUBOIY VAZNHLARI (HABIBIY, SOBIR ABDULLA VA CHUSTIY IJODI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti vakillari Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiyarning yaratgan ruboilyari tadqiq etilgan. Tadqiqotda ruboiy haqida dastlab mumtoz manbalarda, xususan, Shayx Ahmad Taroziyining "Funun ul-baloga" asari, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" ("Muxtasar") asarlarida nazariy fikrlar bildirilganligi aytilgan. Ushbu asarlarda ruboiyiga berilgan ta'riflar bir-biridan farqlanganligi bildiriladi. XX asr ikkinchi yarmida Yevropadan kirib kelgan lirik janrlarda ijod qilish bilan bir qatorda mumtoz adabiyoti janrlari, xususan, ruboiy, tuyuq va boshqa janrlarda ijod qilish ham davom etganligi yoritiladi. Aynan shu tamoyil Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida davom etganligi o'rganiladi. Ularning ruboilyari ham mumtoz adabiyot an'analarini, ham zamonaviy to'rtliklarni o'zida mujassam qilganligi bilan alohida ajralib turishi ta'kidlanadi. Shundan kelib chiqib maqolada bu davrda aruz vaznida yaratilgan, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ruboilyari shartli ravishda 3 guruhga bo'lib tasniflanishi, bular, an'anaviy (mumtoz) ruboilyarlar, dubaytiylar, to'rtliklardan iborat ekanligi aytildi. Shuningdek, ruboiyning vazn va janr xususiyatlari, mavzu ko'lami tahlil ostiga olinadi.

Kalit so'zlar: aruz, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, ruboiy, dubaytiy, to'rtlik, ramal, hazaj, vazn.

Ruboiy mumtoz adabiyotimizda murakkab janrlardan biri hisoblanib, baytli she'rler tarkibiga kiradi. Ruboiy haqida dastlab mumtoz manbalarda ma'lumot uchraydi, xususan, Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balogs'a" asari, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" ("Muxtasar") asarlarida nazariy fikrlar bildiriladi. E'tiborlisi, bu asarlarda ruboiyga berilgan ta'riflar bir-biridan farqlanadi. Jumladan, "Funun ul-balogs'a" asarida Shayx Ahmad Taroziy ruboiy haqida gapirib, uning to'rt misra bo'lismeni, avvalgi, ikkinchi va to'rtinchisi misralari bir xil qofiyalanishini, uchinchi misrasi ixtiyoriy bo'lismeni ta'kidlar ekan, uchinchi misrada qofiya kelmasa ham uni ruboiyi musarra' deb aytashlarini ta'kidlaydi. Namuna sifatida Shayx Ahmad Taroziy turkiy tilda yozilgan bir ruboyni misol qilib keltiradi. Mazkur ruboiy an'anaviy hazaj bahrni vaznlarida bo'lmasa ham, *ramali musaddasi mahzuf* vaznida ekanligi oydinlashadi. Bu esa o'sha davrlarda, ya'ni ruboiy shakllanayotgan paytda uning vazni erkin bo'lganligini bildiradi. Ushbu fikr ba'zan turkiy shoirlar ruboyni *ramalda* ham yozganligini anglatadi. "Bu holat Navoiygacha turkiy she'riyatda ruboyning qat'iy vaznida bo'lishi talab qilinmaganligini ko'rsatadi" [2]. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida "Ruboiy vaznikim, ani "du baytiy" va "tarona" ham derlar, hazaj bahrining "axram" va "axrab" idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xush oyanda va nazmedur bag'oyat raboyanda" [8], – deb yozadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Aruz risolasi" ("Muxtasar") asarida Alisher Navoiy fikrlarini davom ettirib, ruboiy hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini ta'kidlaydi. Keyingi davr nazariy kitoblarida ham ruboiy vaznlarini Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur

ta'kidlaganidek, hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini aytish an'anaga aylangan.

XX asr ikkinchi yarmida Yevropadan kirib kelgan lirik janrlarda ijod qilish bilan bir qatorda mumtoz adabiyoti janrlari, xususan, ruboiy, tuyuq va boshqa janrlarda ijod qilish ham davom etdi. Biz aynan shu tamoyilni Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida ham uchratamiz. Ularning ruboysiylari ham mumtoz adabiyot an'analarini, ham zamonaviy to'rtliklarni o'zida mujassam qilganligi bilan alohida ajralib turadi. Shundan kelib chiqib biz bu davrda aruz vaznida yaratilgan, xususan, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ruboysiylarini shartli ravishda 3 guruhga bo'lib tasnif qilib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisobladi:

1. An'anaviy (mumtoz) ruboysiylar;
2. Dubaytiylar;
3. To'rtliklar.

Dastavval, birinchi guruhgaga mansub ruboysiylarni ko'rib chiqamiz. An'anaviy (mumtoz) ruboysiylarga biz mumtoz ruboiy an'analariga xos bo'lgan vaznlar hazaj bahrining axram va axrab shajarasi o'chovlarda yozilgan she'rlarni kiridik. Kuzatishimizdan ma'lum bo'ldiki, bunday ruboysiylar faqat Sobir Abdullaning ijodida uchrar ekan. Sobir Abdulla ijodida hazaj bahrining axrab shajarasi o'chovlarda 5 ta ruboiy bo'lib, ular shoiring 4 jildlik "Asarlar"iga kiritilgan. Shoiring ushbu ruboysiylari, asosan, do'stlik, vafoli yor, ijod mashaqqati haqidadir. Jumladan, "Ul do'stki meni sog'inaru yod aylar" ruboysiysida do'stlarning bir-birini sog'inganda yo'qlashi, "gohi kelib shod aylashi", ba'zan esa faqat naf yuzasidan hamroh bo'lishi aytildi. Va quyidagicha boshlanadi:

Ul	do'st	ki	me	ni	so	g'i	na	ru	yod	ay	lar
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	-	-
So	g'in	ti	ra	ru	go	hi	ke	lib	shod	ay	lar
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	-	-
Ul	ba'	zi	si	ning	do'st	li	gi	dan	vah	mim	ko'p
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	-	~
Gar	teg	ma	sa	naf	men	da	na	nga	dod	ay	lar
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	-	-

Jadval asosida keltirilgan ushbu she'r ruboysi xasiy (erkin ruboiy) bo'lib, uning 1-, 2-, 4- misralari hazaj bahrining *hazaji musammani axrabi solimi abtar* (ruknlari va taqt'i: *maf'ulu mafoilun mafoiylun fa* -- V|V -- V- | V -- -| ~), 3-misrasi esa *hazaji musammani axrabi solimi azall* (ruknlari va taqt'i: *maf'ulu mafoilun mafoiylun fo* -- V|V -- V- | V -- -| ~) vaznida yaratilgan. An'anaviy mumtoz ruboiyiga xos a-a-b-a tarzida qofiyalangan. Keltirilgan ruboioying 1- va 3-misralarida "do'st" so'zi cho'ziq hijo tarzida kelganligini guvohi bo'ldik. Aslida mumtoz aruz qonuniyatlariga

ko'ra, "do'st" so'zi o'ta cho'ziq hijo hisoblanadi. Lekin XX asr ikkinchi yarmidan boshlab shoirlarimiz aruzdan foydalangan paytlarida o'ta cho'ziq hijolarni ba'zan o'z o'rnda, ya'ni mumtoz aruzi talabi asosida, ba'zan esa oddiy cho'ziq hijo qilib qo'llaganlar. Bu kabi holatlar XX asr ikkinchi yarmi she'riyatni uchun xos bo'lib, boshqa shoirlarda ham kuzatiladi. Xususan, Sobir Abdullaning "Ul do'st dema to'gri so'zing yoqmasa gar" ruboysiysida "do'st" so'zi o'ta cho'ziq hijo tarzida qo'llanilgan. Mazkur ruboiy quyidagi tarzda boshlanadi:

Ul	do'st	de	ma	to'g'	ri	so'	zing	yoq	ma	sa	gar
-	- V	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-

Tek	kan	da	a	mal	so'ng	ra	ku	lib	boq	ma	sa	gar
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-
O't	bah	ri	da	nu	is	ta	ma	yu	qoq	ma	e	shik
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-
Yo'q	lab	se	ni	goh	go	hi	e	shik	qoq	ma	sa	gar
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-

Jadval asosida keltirilgan ushbu she'r ruboysi xasiy (erkin ruboysi) bo'lib, hazaj bahrining *hazaji musammani axrabi maqbuzi makfuti ajabb* (*ruknlari va taqt'i: maf'ulu mafoilun mafoiyu faal* – V| V – V – | V – – V| V –) vaznida yaratilgan. An'anaviy a-a-b-a tarzda qofiyalangan. Shoirning "Ul do'st dema to'gri so'zing yoqmasa gar" ruboysisida ham haqiqiy do'st to'g'ri so'zni qabul qilishi, amal tekkanda o'zgarmasligi kerakligi, bir-birini yo'qlab turish do'stlikning eng asosiy qoidalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Tasnifimizdagi 2-guruh dubaytiylarga biz *hazaji bahrining hazaji musaddasi mahzuf* va *hazaji musaddasi maqsur* o'chovlarida yozilgan she'rlarni kiritdik. Shu o'rinda dubaytiy haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Biz bilamizki, "ruboiya o'xshab dubaytiyning ham o'z poetik qonuniyatları, hayot va faoliyat yo'li, til va uslub xususiyatlari bor" [14]. "Dubaytiy – ikki bayt (to'rt misra)dan iborat, lekin ruboysi vazniga (hazajning axrab va axramiga) tushmaydigan to'rtlik. Dubaytiylar ko'proq ishqiy mavzuda bo'lib, kimgadir atalgan - yo'naltirilgandek taassurot qoldiradi" [7]. Adabiyotshunos I.Haqqul o'zining "O'zbek adabiyotida ruboiy" kitobida dubaytiyning asosiy vazni hazaji musaddasi maqsur yoki mahzufga mos tushishini aytadi. Tadqiqotimizdan aniq bo'ldiki, Sobir Abdulla ijodida 15 ta, Chustiyda 2 ta dubaytiylar uchraydi. Ularning asosiy mazmuni, asosan, haqiqatni aytishdan cho'chish, hurmat qilsang kekkayadiganlar, o'z izzatini bilmagan ba'zi yoshlar, g'araz bilan do'stlashuvchi ba'zilar, nobop hamsoya va yaxshi qo'shni, obro'ying uchun salom-alik qiluvchilar, bir kunini o'ylovchi nafs egalari haqidadir. Jumladan, Sobir Abdullaning "Do'stni arzon sotuvchi ba'zi hofiz haqida" dubaytiysi quyidagicha:

Dedi: - Do'stim, qilay to'yingda xizmat!

Qachon to'y qildim: u bo'ldi shu kun "band".

Uni arziydi qilsam qancha hurmat,

Biroq, pul bermasang, bo'lmaydi xursand [3].

Keltirilgan dubaytiyning 1–3-misralari *hazaji musaddasi mahzuf* (ruknlari va taqt'i: *mafoiyulun mafoiyulun fauvlun* V – – | V – – | V – –), 2-, 4-misralari esa *Hazaji musaddasi maqsur* (ruknlari va taqt'i: *mafoiyulun mafoiyulun mafoiyul* V – – | V – – | V – ~) vaznida yozilgan. Fazlulloh Safo ta'kidlaganidek, a-b-a-b tarzida qofiyalangan. Shuningdek, Chustiy ijodida ham dubaytiylar uchraydi. Uning "Ko'ngil tilagi" devoniga 2 ta dubaytiy kiritilgan. Quyida ularning birini keltiramiz:

So'zimning shohididur aqli vijdon,

Tiriklar bor, ular go'yoki bejon.

O'lifiklar bor, tiriklardan tirikrog,

Bu xil odamni tarix der chin inson [16].

Mazkur dubaytiy hazaj bahrining *hazaji musaddasi maqsur* vaznida yozilib, Tabriziy e'tirof etganidek, a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Keltirilgan har

ikkala she'r ham mumtoz dubaytiy qoidalariga mos yozilgan. Demak, XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida ham dubaytiy yozish an'anasi davom etgan, degan xulosaga kelish mumkin.

To'rtliklar deb nomlangan 3-guruh ramal, hazaj bahrularida yaratilgan she'rlarni o'z ichiga oladi. Bunday she'rlar Sobir Abdulla (2ta), Chustiy (11ta) ijodida mavjud. To'rtlik yaratishdagi XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida dastlabki vazn *ramali musammani mahzuf* bo'lib, unda Chustiyning 4 ta she'ri yaratilgan. Ularning 3 tasi "Sadoqat gullari"ga, 1 tasi esa "Ko'ngil tilagi" devoniga kiritilgan.

Ikki nafsingdan biri g'olib, biri mag'lubroq,

Ikkisin tiysang agar bo'lg'aysan oqil rahnamo.

Ikkisin mag'lubi bo'lsang umr mulkida biroq,

Dunyoda turli balolarga bo'lursan mutbalo [16].

to'rtligi ramal bahrining *ramali musammani maqsur* (ruknlari va taqt'i: *foilotun foilotun foilotun foilon* –V – – | V – – | V – – | V ~) vaznida yozilgan bo'lib, a-b-a-b tarzida qofiyalangan. Ushbu to'rtlik inson o'zidagi ikki nafsni tiyib oqil rahnamo, yo aksincha ularga mag'lub bo'lib turli balolarga mutbalo bo'lishi haqidadir.

To'rtlik uchun asos bo'lgan navbatdagi vazn *ramali musaddasi mahzuf* (maqsur) bo'lib, mazkur o'chovda Sobir Abdulla 2 ta, Chustiy 4 ta she'r yaratgan. Shu o'rinda Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balogs'a" asaridagi turkiy tilda yaratilgan bir she'rni misol sifatida keltiramiz:

Ey malohat mulkida sohibqiron,

Ko'zlarindur fitnai oxir zamon.

Gar pari emassen, ey gul, yuzi hur,

Ne uchun ko'zdin ucharsen har zamon [6].

Shayx Ahmad Taroziy mazkur she'rni keltirib, qofiyasi haqida "agar uchinchi misrada qofiya kelturmasalar ruboysi hissiy" bo'lishini ta'kidlaydi. Bu o'rinda shoir "ruboiyi hissiy"ning vazni haqida to'xtalmaydi. "Funun ul-balogs'a" asarida keltirilgan turkiy tildagi she'r ramali musaddasi maqsur vaznida yozilganligi aniqlashtirildi. Ta'kidlaganimizdek, XX asr ikkinchi yarmi, xususan, Sobir Abdulla, Chustiy ijodida ham mazkur vaznda yozilgan she'rlar bor. Jumladan, Sobir Abdullaning "Mag'rurlik ta'rifida" to'rtligi quyidagicha:

Ba'zi mag'rurlar ko'z-u qosh o'ynatur,

O'zni donishmand olib, bosh o'ynatur.

Telbaga "sen telbasan" deb ko'rmakim,

Ori kelmoqdan senga tosh o'ynatur [3].

Keltirilgan to'rtlik ramal bahrining *ramali musammani mahzuf* (ruknlari va taqt'i: *foilotun foilotun foilon* –V – – | V – – | V – – | V ~) vaznida yozilgan bo'lib, qofiya tizimi esa xuddi Shayx Ahmad Taroziy ko'rsatganidek a-a-b-a tarzidadir. Shu o'rinda mazkur

vaznda yaratilgan Chustiy ijodidan ham pand-nasihat mavzusidagi bir she'rni keltiramiz:

*Ey o'g'il-qiz, kel eshit, bu senga pand,
Nafs zanjiriga qilma o'zni band.
El aro bo'l kamtarin, bo'l kamtarin,
Kamtaringa der malak ham ofarin [3].*

Keltirilgan to'rtlikning 1-, 2- misrasi *ramali musaddasi maqsur*, 3-, 4-misrasi esa *ramali musaddasi mahzuf* vaznida ekanligining guvohi bo'lamiz. Go'yo, "Funun ul-balogs'a" asarida keltirilgan she'r vazni bilan bir xil. Lekin Chustiyning to'rtligida qofiya tizimi a-a-b-b tarzidadir. Zero, Shayx Ahmad Taroziy "ruboyi hissiy"ning qofiyasi haqida qat'iy qoida aytadi. Sobir Abdullaning mazkur vaznida yaratilgan to'rtligi esa bu qoidaga mos, Chustiyning mos kelmaydi. Shuning uchun biz Sobir Abdullaning she'rini shartli "ruboyi hissiy", Chustiyning esa to'rtlik deb atadik. Sobir Abdullaning shu vaznida yaratilgan "Ba'zi "to'yma-to'y yuruvchi raqqosalar" ta'rifida she're "ruboyi hissiy", Chustiyning esa yuqorida keltirilgan she're bilan bir xil. Shuningdek, Chustiy ijodida hazaji musammani solim vaznida yaratilgan to'rtliklar ham uchraydi. Biz tadqiqotimiz davomida, Habibiy ijodida ham barmoq vaznida yaratilgan ruboilyar mavjudligini kuzatdik. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotida "ruboilyar ham g'oyaviy-tematik, ham formal-poetik jihatlardan taraqqiy etdi. Ularning ko'pchiligi barmoq vaznida yoziladigan bo'ldi. Endi ruboyi va sof turkiy to'rtliklar umumiy

xususiyatlarga ega bo'la boshladi.... M.Shayxzoda, Habibiy...va boshqa shoirlar eng yaxshi ruboily va to'rtliklarda katta hayotiy haqiqat, zukko kuzatuvchanlik mavjud [9]. Biz mavzuimiz nuqtayi nazaridan kelib chiqib Habibiyning, Sobir Abdullaning, Chustiyning barmoq vaznida yaratilgan ruboilyarining tahliliga to'xtalmaymiz.

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatidagi ruboily vaznlarini Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijodi misolida o'rganib chiqib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Ruboily mumtoz she'riyatning murakkab janrlaridan biri bo'lsa-da, XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida undan foydalanish kamaymagan. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy ijoda ruboily janriga munosabat 3 xil yo'nalishda bo'lganligini ko'rish mumkin. Bular an'anaviy (mumtoz) ruboilyar, dubaytiylar, to'rtliklar.

2. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida, xususan, Sobir Abdulla ijodida 5ta an'anaviy (mumtoz) ruboily, 15 ta dubaytiylar, 2 ta to'rtliklar uchraydi. Shuningdek, Chustiy ham mazkur tasnifning 2 ta turidan foydalangan.

3. Habibiy ruboilyari ikkita shoir she'rlaridan farq qilgan holda faqat barmoq vaznida yaratilganligi bilan xarakterlanadi.

4. Yuqoridagilarning barchasi XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida ruboily janrini muvaffaqiyat bilan qo'llanganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta'lim-Media, 2019.
2. Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадиий адабиёт, 1965.
3. Абдулла Собир. Таинланган асарлар. 4 томлик. I-том. – Т.: Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1975.
4. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
5. Бобир. Мухтасар. – Тошкент: Фан, 1971.
6. Болтабоев X. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.
7. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.
8. Навоий Алишер. Мезон ул-авzon. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 2000. Т. 16. – Б.
9. Носиров О. ва бошк. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
10. Орзивеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1976;
11. Очилов Э.З. Рубойи таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.
12. Ҳабибий. Девон. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1975.
13. Ҳабибий. Таинланган асарлар. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1967.
14. Ҳаккулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Т.: Фан, 1981.
15. Ҳожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998
16. Чустий. Кўнгил тилаги. – Т.: Фан, 1994.